

## XORIJIY MAMLAKATLARDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

### PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF COTTON-TEXTILE CLUSTER ACTIVITIES IN FOREIGN COUNTRIES

<sup>1</sup>**Shodmonov Bahodir  
Sherkulovich**

<sup>1</sup>*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Mintaqaviy iqtisodiyot"  
kafedrası mustaqil izlanuvchisi*

#### Annotatsiya Abstract

**Uzb.** - Mazkur maqolada global paxta-to'qimachilik sanoatining klaster asosida rivojlanish tendensiyalari, yetakchi mamlakatlar tajribasi hamda investitsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi taraqqiy etgan mamlakatlarda paxta-to'qimachilik klasterlari orqali investitsiya jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlash mexanizmlarini ilmiy asosda baholashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, klasterlarga yo'naltirilgan investitsiyalar sanoatni modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, ish o'rinlari yaratish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashda muhim strategik omil hisoblanadi. Shu bilan birga, pandemiya davrida yuzaga kelgan global ta'minot zanjiri muammolari sanoatni diversifikatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi.

**Eng.** - This article analyzes the trends in the development of the global cotton and textile industry on a cluster basis, the experience of leading countries, and priority areas of investment activity. The main objective of the study is to scientifically assess the mechanisms for attracting investment, increasing production efficiency, and strengthening export potential through cotton and textile clusters in developed countries. The results of the study show that investments in clusters are an important strategic factor in modernizing the industry, introducing high technologies, creating jobs, and ensuring the production of competitive products. At the same time, the global supply chain problems that arose during the pandemic have shown the need to diversify the industry and strengthen innovative approaches.

#### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *paxta-to'qimachilik sanoati, klasterlar, investitsion faoliyat, sanoat klasterlari, eksport salohiyati, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish, xalqaro savdo.*

❖ *cotton-textile industry, clusters, investment activity, industrial clusters, global market, export potential, innovation, economic efficiency, sustainable development, international trade.*

#### Kirish.

Paxta to'qimachilik tarmog'i jahon to'qimachilik sanoatining muhim segmentlaridan biri bo'lib, keng qo'llaniladigan

tabiiy xom ashyo paxta tolasiga asoslanadi. Paxta tolasi yuqori darajadagi nafas oluvchanlik, mexanik chidamlilik va yumshoqlik xususiyatlariga ega bo'lgani sababli



kiyim-kechak, uy to'qimachiligi hamda ayrim sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. Global paxta to'qimachilik bozorining yaqin yillarda barqaror sur'atlarda kengayib, ushbu jarayon asosan tabiiy va barqaror tolalarga bo'lgan talabning ortishi, shuningdek, mebel va uy to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanadi.

Atrof-muhit muammolariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi natijasida iste'molchilar sintetik materiallarga nisbatan ekologik toza matolarni afzal ko'rmoqda. Paxtaning qayta tiklanadigan va biologik parchalanadigan xususiyatlarga ega ekanligi ushbu tendensiyadan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekologik yorliqlar va organik paxta sertifikatlarini joriy etayotgan yetakchi brendlar bozorda raqobatbardoshligini oshirib, sezilarli iqtisodiy o'sishga erishmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda paxta-to'qimachilik sanoatining samaradorligini oshirishda klaster yondashuvi muhim rol o'ynamoqda. Paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish logistika, ilmiy-tadqiqot hamda marketing faoliyatini yagona boshqaruv va ishlab chiqarish tizimida integratsiyalash imkonini beradi. Bunday yondashuv ishlab chiqarish zanjirining barcha bo'g'inlari o'rtasida muvofiqlikni ta'minlab, qo'shilgan qiymatni oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va tarmoqning umumiy raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlar faoliyatining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan investitsion siyosatning to'g'ri yo'naltirilganligiga bog'liq. Ustuvor investitsiya yo'nalishlari sifatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, energiya tejankor uskunalar xaridi, raqamli ishlab chiqarish tizimlari, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini moliyalashtirish hamda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishni

kengaytirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, inson kapitaliga sarmoya kiritish, malakali mutaxassislar tayyorlash va dizayn hamda marketing yo'nalishlarini rivojlantirish ham klasterlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

"Klaster" atamasi fransuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbekcha tarjimada "bog'lam", "guruh" yoki "to'planish" ma'nolarini anglatadi. Ushbu tushuncha iqtisodiy adabiyotlarda muayyan hudud yoki tarmoq doirasida o'zaro bog'liq subyektlarning birlashuvi sifatida talqin etiladi.

E. Galves-Nogales agroklasterni tushunchasini sodda va mazmunan keng qamrovli tarzda izohlab, uni mahsulot ishlab chiqaruvchilar hamda tegishli institutlarning umumiy manfaatlariga erishish va yangi imkoniyatlarni aniqlash maqsadida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohalarida rasmiy yoki norasmiy asosda o'zaro bog'lanishi, shuningdek, tarmoqlararo aloqalarni yo'lga qo'yish jarayoni sifatida ta'riflaydi [1]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, agroklasterni faqat ishlab chiqarish faoliyati bilan cheklangan tizim sifatida emas, balki resurslar, bilimlar, innovatsiyalar va bozor mexanizmlarini yagona makonda birlashtiruvchi kompleks tuzilma sifatida baholash mumkin. Bunday integratsiyalashgan model klaster ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirib, sinergetik samaraga erishish, innovatsion yechimlarni joriy etish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Nastin fikriga ko'ra agroklasterni bir vaqtning o'zida va o'zaro hamkorlikda ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish hamda atrof-muhitni himoya qilish maqsadida geografik jihatdan bir hududda joylashgan, o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi turli mulk egalari – oilaviy xo'jaliklar, fermerlarning



kooperativ korxonalari, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta'lim muassasalari, maslahat xizmatlari va bozor sub'ektlari tizimidan iborat [2].

M.Porterning klasterlar nazariyasi doirasida, sanoat klasterlari korxonalar va ta'minot zanjirlarini birlashtirib, innovatsiya va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi [3]. Paxta-to'qimachilik klasterlari ham shu printsipl asosida ishlab chiqarish samaradorligini va eksport salohiyatini oshirishi mumkin deb hisoblanadi.

M.Enright sanoat klasterlarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shishini ta'kidlaydi [4]. Unga ko'ra, agroklastlar, xususan paxta-to'qimachilik tarmog'i, mahalliy ish o'rinlarini yaratish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda muhim vositadir.

S. Rosenfeldning so'zlariga ko'ra, klasterlarni yaratish zamonaviy iqtisodiy rivojlanish va kam rivojlangan hududlar strategiyasining asosi hisoblanadi [5]. S. Rosenfeld ta'kidlaganidek, klasterlarni shakllantirish hududiy iqtisodiy integratsiya, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish orqali zamonaviy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, klasterlar hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va mahalliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishga imkon yaratadi, bu esa milliy raqobatbardoshlikni oshirishga sezilarli hissa qo'shadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda empirik va nazariy darajadagi usullardan, ya'ni induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, kuzatuv usullaridan foydalaniladi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

So'nggi yillarda global paxta-to'qimachilik sanoatining rivojlanishi tobora ko'proq mamlakatlararo investitsiyalar va integratsiyalashgan ishlab chiqarish klasterlari asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, Xitoy,

Hindiston, Turkiya, Braziliya, Pokiston va AQSh kabi yetakchi paxta-to'qimachilik ishlab chiqaruvchi mamlakatlar o'z sanoat strategiyalarida klaster yondashuvini investitsiyalarni jalb etishning muhim instrumenti sifatida keng qo'llamoqda. Mazkur klaster modeli ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarini hududiy va funksional jihatdan uyg'unlashtirish orqali sanoatni modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish hamda tayyor mahsulotlar eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada paxta-to'qimachilik tarmog'ida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushi ortib, milliy va global bozorlarda raqobatbardoshlik mustahkamlanmoqda.

Xitoyning tajribasi klaster asosidagi investitsiyalashda eng ilg'or hisoblanadi. Mamlakatda paxta yetishtirish hududlari, to'qimachilik ishlab chiqarish zonalarini va eksport markazlari bir-biriga integratsiyalashgan holda rivojlangan. Shu orqali xomashyo ishlab chiqarishdan tortib, tayyor mahsulot eksportigacha bo'lgan jarayon optimallashtiriladi. Investitsiyalarni jalb qilish uchun hukumat qulay soliq rejimlari, subsidiyalar va infratuzilma loyihalarini taqdim etadi. Natijada, Xitoy klaster strategiyasi sanoatning global raqobatbardoshligini oshirishda ijobiy tajriba sifatida xizmat qiladi.

Hindiston esa paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlaydi va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Turkiya klaster modeli esa xususiyl va davlat sektorining hamkorligini kuchaytirish, shuningdek, sanoat parklarini tashkil etishga asoslangan. Braziliya va Pokistonda paxta yetishtirish hamda mato ishlab chiqarishga ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu mamlakatlar mazkur klasterlar orqali qishloq hududlarida bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy




iqtisodiyotni faollashtirishga harakat qilgan. Natijada paxta xom ashyosini yetishtirishdan boshlab uni qayta ishlash va mato ishlab chiqarishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab olgan ishlab chiqarish tuzilmalari vujudga kelib, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga muhim hissa qo'shgan.

AQShning tajribasida esa klasterlar innovatsiya va texnologik rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lib, yuqori samaradorlikka erishish va eksport bozorlarida yetakchilikni saqlashga qaratilgan. Har bir mamlakatning tajribasi o'ziga xos bo'lsa-da, umumiy jihati shundaki, klaster asosidagi investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarishni kengaytiradi, balki

raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va global bozorda ulushni oshirish imkonini beradi.

Shu tarzda, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Braziliya, Pokiston va AQShning klaster strategiyalari sanoatni rivojlantirish, investitsiya jalb qilish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish bo'yicha muhim tajriba sifatida qo'llanilishi mumkin. Ushbu tajribalarni tahlil qilish boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga o'z paxta-to'qimachilik sanoatini strategik rivojlantirish va investitsiya samaradorligini oshirish bo'yicha foydali tajribalarga ega hisoblanadi.



**1-rasm. 2020-2034 yillarda Global paxta to'qimachilik bozori, milliard AQSh dollarida [6]**

Global paxta to'qimachilik bozori jahon iqtisodiyotining eng muhim va barqaror rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Paxta kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari hamda ayrim sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida asosiy xom ashyo sifatida keng qo'llanilib, unga bo'lgan talab yil sayin izchil oshib bormoqda. 2024-2034-yillar oralig'ida paxta to'qimachilik sanoati bozorining rivojlanish dinamikasi ijobiy bo'lishi prognoz qilinmoqda. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, mazkur davrda bozorning yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) 7,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Xususan, 2024-yilda 167,38 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan

bozor hajmi 2034-yilga kelib 298,51 milliard AQSh dollariga yetishi bashorat qilinmoqda. Ushbu barqaror o'sish global kiyim-kechak sanoatining kengayishi, ekologik toza va tabiiy xom ashyolarga bo'lgan talabning ortishi, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish salohiyatining oshishi bilan izohlanadi. Umuman olganda, paxta to'qimachilik bozorining kelgusi o'n yil ichida izchil va istiqbolli rivojlanishi tarmoqning global iqtisodiyotdagi ahamiyati yanada ortib borishini yaqqol tasdiqlaydi.


To'qimachilik mahsulotlari eksporti bo'yicha Xitoyning jahon bozoridagi ulushi 2018-2024-yillar davomida tebranishlarga ega



bo'lgan bo'lsa-da, umumiy tendensiyada o'sish kuzatilgan. Xususan, 2018-2019-yillarda Xitoyning to'qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari bo'yicha global bozor ulushi 38,1 foizdan 39,3 foizga oshib, barqaror ijobiy o'sish tendensiyasi shakllangan. 2020-yilda esa COVID-19 pandemiyasi sharoitida global ta'minot zanjirlarida yuzaga kelgan uzilishlar to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin ortishi natijasida Xitoyning jahon bozoridagi ulushi 46,8 foizgacha sezilarli darajada ko'tarilgan. Biroq 2021-yilda pandemiya ta'sirining nisbatan susayishi hamda boshqa yetakchi ishlab chiqaruvchi

mamlakatlarning xalqaro bozordagi faol ishtiroki bilan mazkur ko'rsatkich 41,1 foizgacha pasaygan.

Shu bilan birga, 2022-2023-yillarda Xitoyning to'qimachilik eksportidagi ulushi yana tiklanib, mos ravishda 42,3 foiz va 42,1 foizni tashkil etgan. 2024 yilda esa o'sish tendensiyasi davom etib, bozor ulushi 43,1 foizga yetgan. Umuman olganda, mazkur davr Xitoyning jahon to'qimachilik bozorida yetakchi mavqeini saqlab qolayotganini hamda pandemiya davrida shakllangan ustunlik keyingi yillarda ham muhim rol o'ynashda davom etganini yaqqol namoyon etadi.



**2-rasm. Xitoyning jahon miqyosidagi to'qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari eksportidagi bozor ulushi [7]**

Kiyim-kechak yo'nalishida eksport jarayoni to'qimachilikdan biroz farq qiladi: Xitoyning bozor ulushi nisbatan barqaror bo'lsa-da, to'qimachilikka nisbatan pastroq va ayrim yillarda pasayish kuzatiladi. 2018-2019-yillarda ulush 32,1 foizdan 30,2 foizga tushgan bo'lib, bu Xitoydan Vetnam, Bangladesh kabi mamlakatlarga ishlab chiqarish ko'chishi bilan izohlanadi. 2020-yilda pandemiya yili bo'lishiga qaramay, ulush 30,7 foizga biroz ko'tarilgan. 2021-yilda tiklanish davrida ko'rsatkich 32,5 foizga yetgan, 2022-2023-yillarda esa mos ravishda

31,8 foiz va 31,6 foiz bo'lib, kichik tebranishlar bilan barqarorlik saqlangan. 2024-yilda ulush yana 32,5 foizga ko'tarilib, o'sish qayd etilgan. Shu bilan birga, kiyim-kechak segmentida Xitoy hali ham eng yirik eksportchi bo'lib qolmoqda, ammo mintaqaviy raqobat kuchayib bormoqda.


2018-2024-yillardagi ma'lumotlar Xitoyning global to'qimachilik va kiyim-kechak bozorida mustahkam mavqega ega ekanligini ko'rsatadi. To'qimachilik eksportida Xitoyning ulushi yuqori va o'sish tendensiyasida bo'lib, pandemiya bu segmentda mamlakatning rolini yanada kuchaytirgan. Kiyim-kechak eksportida



esa o'sish nisbatan sekinroq bo'lsa-da, Xitoy raqobatga qaramay bozorda yetakchi o'rinni saqlab qolmoqda. Umuman olganda, kuchli ishlab chiqarish bazasi, rivojlangan logistika tizimi va global ta'minot zanjirlaridagi markaziy roli Xitoyning jahon bozoridagi ulushini yaqin yillarda ham yuqori darajada saqlab qolish ehtimolini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, 2018-2019 hamda 2024-2025-yillar oralig'ida Xitoyning paxta

bozori import hajmi va ichki iste'mol ko'rsatkichlari sezilarli o'zgarishlarga duch kelgan. Global iqtisodiy vaziyat, yetkazib berish zanjiridagi uzilishlar, pandemiya ta'siri hamda paxta sanoatidagi talab va taklif dinamikasi mamlakatning paxta importi va ichki iste'mol ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Quyida ushbu davr mobaynida Xitoyning paxta importi va ichki iste'molida kuzatilgan asosiy tendensiyalar tahlil qilinadi.




**3-rasm. 2018-2025-yillarda Xitoyning paxta importi va ichki iste'moli, million paxta bog'lami [7]**

2018-2025-yillar davomida Xitoy paxta bozori sezilarli o'zgaruvchanlikni namoyon etdi: import hajmi 2018/2019-yilda 8 mln. bog'lamdan 2020/2021-yilda 12 mln. bog'lamga oshib, 2021-2023-yillarda pandemiya va iqtisodiy pasayish ta'sirida 6-7 mln. bog'lamga tushdi, 2023/2024-yilda esa to'qimachilik eksportiga talab oshishi bilan 14 mln. bog'lamga yetdi va 2024/2025-yilda 12 mln. bog'lamga qaytdi. Ichki iste'mol ham shunga mos ravishda 9 mln. bog'lamdan 11 mln. bog'lamgacha oshib, 2022/2023-yilda 6 mln. bog'lamga tushdi, 2024/2025-yilda esa 12 mln. bog'lamga tiklandi. Umuman, bozor 2021-2023-yillarda pasayishlarni boshdan kechirdi, keyingi yillarda esa import va ichki talab muvozanatlashib, barqarorlashuv jarayoniga kirgan.

Hindiston dunyodagi eng yirik paxta ishlab chiqaruvchi mamlakatlardan biri bo'lib, global ishlab chiqarishning 23 foizini ta'minlaydi. Paxta Hindiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. 2023/2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, Hindistonda paxta 13,06 mln. gektardan ortiq maydonni egallagan, jahon bo'yicha esa paxta ekin maydoni 33,1 mln. gektarni tashkil qiladi. Hindiston paxta sanoati mamlakatdagi taxminan 60 mln. kishini ish bilan band qiladi. 2018/2019-2023/2024-yillar davomida Hindiston paxta ishlab chiqarishida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Ishlab chiqarish hajmi ob-havo sharoitlari, hosildorlik, ekin maydoni, ichki va global bozor talabining o'zgarishlariga bevosita bog'liq bo'lgan.






**4-rasm. 2018-2024 yillarda Hindistonda paxta matolarini ishlab chiqarish, milliard kvadrat metrda [8]**

2018-2024-yillar davomida Hindiston to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish sezilarli o'zgaruvchanlikni namoyon etdi: 2018-2019-yillarda ishlab chiqarish 4,06 mlrd. kvadrat metrdan 4,21 mlrd. kvadrat metrgacha oshdi, 2020-2021-yillarda esa pasayib, eng past nuqtaga 3,63 mlrd. kvadrat metrga tushdi. 2022-yilda ishlab chiqarish qayta 4,06 mlrd.

kvadrat metrgacha ko'tarildi, ammo 2023 va 2024-yillarda yana pasayib, mos ravishda 3,44 va 3,41 mlrd. kvadrat metrga yetdi. Bu tendensiya Hindiston to'qimachilik sanoatidagi ishlab chiqarishning global va ichki omillarga bog'liqligini ko'rsatadi hamda sohaning barqaror o'sish strategiyasiga ehtiyoji mavjudligini ta'kidlaydi.



**5-rasm. 2024-2034 yillardagi Hindiston to'qimachilik bozorining rivojlanishi bozor hajmi (mln. AQSh dollarida) [8]**

2024-2034-yillarda Hindiston to'qimachilik bozorining barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilishi kutilmoqda. 2024-yilda bozor hajmi 92 mln. AQSh dollar, 2034-yilda esa 152 mln. AQSh dollarga yetishi prognoz qilinmoqda, yillik o'rtacha o'sish 6-7 foizni tashkil qiladi. O'sish ichki talabning ortishi, sanoat modernizatsiyasi va eksport salohiyatining kuchayishi bilan bog'liq bo'lib,

Hindiston tekstil sanoati kelgusi o'n yilda mintaqaviy va global raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Turkiyaning to'qimachilik va tikuvchilik sanoati tarixiy ahamiyati va zamonaviy raqobatbardoshligi bilan jahon yetakchisi hisoblanadi. Sektor butun qiymat zanjirini qamrab oladi: ip va to'qimachilik ishlab chiqarishdan tortib, tayyor kiyim-kechak va uy




to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishgacha. Mahsulotlar yuqori sifat va moda bilan funksionallik uyg'unligi bilan mashhur bo'lib, ishlab chiqarishning katta qismi eksportga yo'naltirilgan.

2022-yilda Turkiya tekstil sektori jahon miqyosida yettinchi o'rinni egalladi, umumiy eksport 37,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Trikotaj kiyimlar eksportning 30 foizini tashkil qilgan bo'lsa, boshqa to'qimachilik mahsulotlari 12,6 foizga o'sib, 8,46 mlrd. dollarga yetdi. Eksportning asosiy bozorlarida Germaniya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va

boshqa yirik mamlakatlar mavjud. Gilam va pol qoplamalari kabi ba'zi mahsulotlar eksportda 13 foizga pasaygan.

Turkiyaning raqobatdoshligi past ishlab chiqarish tannarxi, malakali ishchi kuchi va strategik joylashuv bilan bog'liq. Ishlab chiqaruvchilar zamonaviy texnologiyalar va dizaynlarni qo'llab, mahsulot sifati va innovatsiyalarga ustunlik beradi. 2022-yilda import 31,5 foizga o'sib, 15,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi, uning 32 foizi paxtaga tegishli bo'lib, asosiy qismi AQShdan kelgan.



**6-rasm. 2018-2024 yillarda Turkiyaning Hindistondan paxta va MMF importi, mln. AQSh dollarda [8]**

2018–2024-yillar davomida Turkiyaning Hindistondan paxta va sun'iy filamentlar (MMF) importi sezilarli o'sish ko'rsatdi. 2022-yilda Hindistondan paxta importi 84,3 foizga oshib, 208,9 mln. AQSh dollariga yetdi. Sun'iy filamentlar umumiy to'qimachilik va kiyim-kechak importining 19 foizini tashkil qilgan bo'lib, Xitoy 36 foiz bozor ulushi bilan yetakchi eksportchi, Hindiston esa 14 foiz ulush bilan ikkinchi o'rinda bo'ldi. Sun'iy shtapel tolalar (MMSF) ham importda muhim ahamiyatga ega bo'lib, umumiy importning 15 foizini tashkil qilgan va Xitoy, Indoneziya hamda Hindiston yetakchi yetkazib beruvchilar sifatida ajralib turadi.

Hindistondan paxta importi 2018-yilda

100,8 mln. dollardan 2024-yilda 271,1 mln. dollarga yetdi, ya'ni 169 foizga oshdi; ayniqsa 2021–2023 yillarda o'sish sur'ati yuqori bo'ldi. Shu bilan birga, MMF importi 2018-yilda 335,1 mln. dollardan 2024-yilda 465,2 mln. dollarga ko'tarilib, 39 foizga o'sdi. Bu holat Turkiyaning paxta va MMF mahsulotlariga bo'lgan talabining kuchayganini ko'rsatadi.

Paxta va tekstil klasterlariga sarmoya kiritish ishlab chiqarish zanjirini mustahkamlashga yordam beradi va Turkiyaning global tekstil bozoridagi pozitsiyasini kuchaytiradi. Bu esa paxta sanoati va to'qimachilik ishlab chiqarishining barqaror o'sish strategiyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.



### **Xulosa va takliflar.**

Mazkur tadqiqotda global paxta-to'qimachilik sanoatining klaster asosidagi rivojlanish modeli, yetakchi mamlakatlar – Xitoy, Hindiston, Turkiya, Braziliya, Pokiston va AQSh tajribasi asosida chuqur tahlil qilindi. O'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, klasterlashgan ishlab chiqarish tizimi paxta yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot eksportigacha bo'lgan butun qiymat zanjirini integratsiyalash orqali sanoat samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Xitoy tajribasi klaster asosidagi investitsiya siyosatining eng ilg'or namunasi sifatida ajralib turadi. Ishlab chiqarish zonalari, logistika markazlari va eksport infratuzilmasining uyg'un rivojlanishi natijasida mamlakat global to'qimachilik bozorida yetakchi mavqeini mustahkamladi. Hindiston esa paxta yetishtirish va tekstil ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish orqali ichki talabni qondirish va eksport imkoniyatlarini oshirishga erishmoqda. Turkiya misolida esa davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida rivojlangan sanoat klasterlari yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilayotgani aniqlandi.

Shuningdek, global paxta-to'qimachilik bozorining 2024-2034-yillarda o'rtacha

7,5 foizli yillik o'sish sur'ati bilan 298,5 mlrd. AQSh dollariga yetishi prognoz qilinayotgani ushbu tarmoqning strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Ekologik toza, qayta tiklanadigan va biologik parchalanadigan xomashyoga bo'lgan talabning ortishi paxta mahsulotlarining global bozordagi ustuvorligini mustahkamlamoqda.

Xitoyning jahon to'qimachilik eksportidagi yuqori ulushi, Hindistonning yirik paxta ishlab chiqaruvchi sifatidagi roli hamda Turkiyaning Yevropa bozorlariga yaqinligi klaster asosidagi investitsiyalar samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi. Shu bilan birga, pandemiya davrida kuzatilgan tebranishlar global ta'minot zanjirlarining zaif tomonlarini ko'rsatib, diversifikatsiya va innovatsion yondashuvlarning muhimligini yana bir bor isbotladi.

Xulosa qilib aytganda, paxta-to'qimachilik klasterlariga yo'naltirilgan investitsiyalar sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, ish o'rinlari yaratish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim strategik vosita hisoblanadi. Ushbu tajribalar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, milliy paxta-to'qimachilik sanoatini raqobatbardosh rivojlantirishda qo'llanishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Galvez-Nogales, Eva. *Agro-based clusters in developing countries: staying competitive in a globalized economy*. FAO, Rome, 2010
2. Настин А.А. Сельскохозяйственный кластер Дании. // «Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий», 2011, №4. –С. 45.
3. Porter M. *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press, 1990. – 850 p.
4. Enright M.J. *Regional Clusters and Firm Strategy* // *Geography and Strategy*. – 2000. – Vol. 12, №3. – P. 45–62.
5. Rosenfeld, S. (2016). *Industrial Clusters and Regional Development*. Routledge, London.
6. Zion Market Research tashkilotining rasmiy veb sahifasi.
7. Shenglu Fashion tashkilotining rasmiy veb sahifasi.
8. <https://www.statista.com>